

RAQAMLI MULOQOT MUHITIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI LUG'AT TARKIBINING BOYISHI MASALARI

Xamzayev S.A.

PhD, dotsent, O'ZDJTU

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli muloqot muhitida ingliz va o'zbek tillari lug'at tarkibining boyishining nazariy asoslari tizimli ravishda tadqiq etiladi. Maqolada global kommunikatsiya, internet va raqamli muhit ta'sirida yuzaga kelayotgan neologizmlar, ularning morfologik va semantik moslashuvini korpus ma'lumotlari asosida o'rganishning asoslari keltiriladi. Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan til modellari orqali leksik o'zgarishlarni prognoz qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari til tizimining dinamik va adaptiv tabiatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: raqamli muloqot muhiti, sun'iy intellekt, lug'at tarkibi, neologizm, korpus lingvistikasi.

Аннотация. В данной статье системно исследуются теоретические основы обогащения словарного состава английского и узбекского языков в условиях цифровой коммуникационной среды. Особое внимание уделяется неологизмам, возникающим под влиянием глобальной коммуникации, интернета и цифровой среды, а также их морфологической и семантической адаптации, изучаемой на основе корпусных данных. Кроме того, рассматриваются возможности прогнозирования лексических изменений с использованием языковых моделей, основанных на искусственном интеллекте. Результаты исследования подтверждают динамичный и адаптивный характер языковой системы.

Ключевые слова: цифровая коммуникативная среда, искусственный интеллект, лексический состав, неологизм, корпусная лингвистика.

Abstract. This article systematically examines the theoretical foundations of lexical enrichment in English and Uzbek within the context of digital communication environments. Particular attention is given to neologisms emerging under the influence of global communication, the internet, and digital media, as well as to their morphological and semantic adaptation analyzed through corpus-based data. Furthermore, the study explores the potential of predicting lexical changes using artificial intelligence-based language models. The findings confirm the dynamic and adaptive nature of language systems.

Keywords: digital communication environment, artificial intelligence, word stock, neologism, corpus linguistics.

XXI asr tilshunosligida yuz berayotgan eng muhim o'zgarishlardan biri – bu tadqiqot metodologiyasining raqamlashuvidir. Ilgarigi an'anaviy yondashuvlar asosan cheklangan matnlar korpusiga va tadqiqotchining intuitiv kuzatuvlariga tayangan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslik katta hajmdagi raqamli ma'lumotlar va hisoblash texnologiyalariga asoslanmoqda. Bu jarayonni D. Kristal "Raqamli asrda til tobora ko'proq texnologik muhit tomonidan shakllantirilmoqda" deb ta'riflaydi (Crystal, 2003; 120). Ushbu fikr zamonaviy til taraqqiyotining asosiy tendensiyalarini aks ettiradi.

Raqamli korpuslar tilshunoslik tadqiqotlarida inqilobiy ahamiyatga ega bo'lib, ular til birliklarini tabiiy muhitda kuzatish imkonini beradi. T. MakEneri va A. Xardi ta'kidlaganidek, "Korpus lingvistikasi tilshunoslikni tahlil qilish uchun introspektsiyadan ko'ra ko'proq empirik asos yaratadi" (McEnery & Hardie, 2012; 6). Bu yondashuv tildagi

leksik o'zgarishlarni aniqlashda ayniqsa muhimdir, chunki u real qo'llanish holatlarini aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida yangi so'zlarning paydo bo'lishi va tarqalishi COCA yoki BNC kabi korpuslar orqali aniqlaniladi.

Lingvistik modellashtirish til tizimini formal struktura sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu yondashuv ayniqsa matematik lingvistika va kompyuter lingvistikasi kesishgan nuqtada rivojlanmoqda. Statistik modellar yordamida til birliklarining ehtimollik taqsimoti aniqlanadi, bu esa ularning real nutqdagi qo'llanishini aniqroq tushunishga yordam beradi. Natijada til hodisalari nafaqat tavsifiy, balki kvantitativ jihatdan ham tahlil qilinadi.

Ingliz tilida neologizmlar asosan raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va texnologik innovatsiyalar ta'sirida shakllanmoqda. *Selfie, hashtag, metaverse, doomscrolling* kabi so'zlar qisqa vaqt ichida global leksik fondga kirib keldi. Jurafskiy va Martin bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: "Til yangi kommunikativ ehtiyojlarga, ayniqsa texnologik vositachilik kontekstida tez moslashadi" (Jurafsky & Martin, 2023; 45). Bu yerda texnologiya va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida ham leksik boyish jarayoni jadal kechmoqda, biroq uning mexanizmi biroz farq qiladi. Agar ingliz tilida yangi so'zlar ko'proq ichki resurslar asosida yaratilsa, so'nggi vaqtlarda o'zbek tilida tashqi manbalardan o'zlashmalar muhim o'rin tutadi. Sh. Rahmatullayev ta'kidlaganidek, "O'zbek tili leksik tarkibi tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab tillar bilan aloqada shakllangan va rivojlangan" (Rahmatullayev, 2000; 15). Bugungi kunda bu jarayon globallashuv sharoitida yanada kuchaymoqda. Masalan, *bloger, startup, online, platforma* kabi so'zlar o'zbek tiliga kirib kelib, keyinchalik morfologik jihatdan moslashadi: Masalan, *blog* so'zidan *bloger, blogerlik, blogerlar, blogerlik faoliyati* kabi shakllar hosil qilinadi. *Bu esa tilning ichki resurslari tashqi ta'sir bilan uyg'unlashgan holda ishlayotganini ko'rsatadi.* Bu holat o'zbek tilining agglyutinativ xususiyati bilan bog'liq bo'lib, u yangi leksik birliklarni oson o'zlashtirish imkonini beradi. A. Xojiyev bu haqda shunday yozadi: "O'zbek tilida so'z yasash tizimi juda faol bo'lib, u yangi tushunchalarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi" (Xojiyev, 1981; 78).

Sun'iy intellekt texnologiyalari tilshunoslikda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ayniqsa, neyron tarmoqlarga asoslangan til modellari katta hajmdagi korpus ma'lumotlari asosida tadqiq etilib, til strukturasini chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu modellar nafaqat mavjud leksik birliklarni tahlil qiladi, balki yangi so'zlar va ularning ehtimoliy qo'llanish sohalarini ham prognoz qila oladi. Zero Gries ta'kidlaganidek, "Miqdoriy yondashuvlar tilshunoslarga sifatli tahlil orqali darhol ko'rinmaydigan qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi" (Gries, 2015; 12).

Lingvistik modellashtirish esa til jarayonlarini matematik va statistik modellar orqali ifodalashga qaratilgan. Bu yondashuv tilni tizim sifatida tushunishga yordam beradi. Masalan, ma'lum bir neologizmning qaysi kontekstlarda ko'proq qo'llanilishi uning semantik maydonini belgilaydi. Sinclair (1991) bu holatni "Ma'no alohida ta'riflardan ko'ra foydalanish namunalaridan kelib chiqadi" deb ta'riflaydi (Sinclair, 1991; 110).

Ingliz va o'zbek tillari lug'at tarkibi boyishining chog'ishtirma tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda ham leksik boyish jarayoni global omillar ta'sirida kechmoqda. Biroq ingliz tilida bu jarayon tezroq va intensivroq bo'lsa, o'zbek tilida u ko'proq adaptatsiya va integratsiya orqali amalga oshadi. Bu farq tillarning tipologik xususiyatlari va ijtimoiy maqomi bilan izohlanadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonning asosiy drayveriga aylangan. Yangi so'zlar ko'pincha aynan onlayn muhitda paydo bo'lib, keyinchalik ommaviy nutqqa kirib bormoqda. Bu holatni Biber quyidagicha ta'riflaydi: "Elektron muloqot leksik

innovatsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yangi registrlarni joriy qilmoqda" (Biber, 1998; 245).

Til lug'at tarkibining boyishi jarayonini prognoz qilish masalasi ham aynan sun'iy intellekt bilan bog'liq holda yangi bosqichga ko'tarildi. Agar ilgari til o'zgarishlari faqat retrospektiv tahlil asosida o'rganilgan bo'lsa, bugungi kunda ularni oldindan bashorat qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Masalan, ma'lum bir terminning ilmiy maqolalarda, bloglarda va ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanish chastotasining oshishi uning yaqin kelajakda umumxalq tiliga kirib borishini ko'rsatishi mumkin.

Biroq bu jarayon faqat ijobiy jihatlarga ega emas. Tilga haddan tashqari ko'p o'zlashmalar kirib kelishi uning milliy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ko'plab tilshunolar til siyosati va normativ me'yorlarni saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan D. Kristal bu masalada quyidagi fikrni beradi: "Hozirgi tez texnologik muloqot davrida tabiiy til o'zgarishini standartlarni saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan muvozanatlash zarurati ortib bormoqda" (Kristal, 2003; 166) Ayniqsa, o'zbek tilida yangi terminlarni imkon qadar milliy asosda yaratish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Boshqa tomondan, tilning ochiq tizim ekanini ham inkor etib bo'lmaydi. Har qanday til tashqi ta'sirlar natijasida rivojlanadi va boyiydi. Muhimi, bu jarayon nazorat ostida va ilmiy asosda olib borilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, raqamli korpuslar va sun'iy intellekt vositalari til siyosatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, raqamli korpuslar va sun'iy intellekt vositalari nafaqat tadqiqot usuli, balki til taraqqiyotining o'ziga ta'sir etuvchi omil sifatida ham qaralishi mumkin. Ular tilni faqat kuzatmaydi, balki uning rivojlanishini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda raqamli texnologiyalar markaziy o'rinni egallamoqda. Ingliz va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqilgan lug'at tarkibining boyishi jarayonlari tilning dinamik, ochiq va adaptiv tizim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Kelajakda bu sohadagi tadqiqotlar yanada chuqurlashib, til va texnologiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yanada keng yoritishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Biber, D. (1998). *Corpus Linguistics*. New York: Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language* (Second edition). Cambridge University Press.
3. Gries, S. (2015). *Quantitative Corpus Linguistics* (Second edition). New York: Routledge.
4. Jurafsky, D., Martin, J. (2023). *Speech and Language Processing*. Prentice Hall, Englewood Cliffs, New Jersey.
5. McEnery, T., Hardie, A. (2012). *Corpus Linguistics*. Cambridge University Press.
6. Raxmatullayev Sh. (2000) O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: Universitet.
7. Sinclair, J. (1991). *Corpus, Concordance, Collocation*. UK: Oxford University Press.
8. Xojiyev A. (1981). *O'zbek tili leksikologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.